

EPIK ASARLARNI O'QITISHDA KEYS-STADI TEXNOLOGIYASINI QO'LLASHNING DIDAKTIK TAMOYILLARI VA METODIK MODELINI

Qosimova Munisa Botirjon qizi,

Alisher Navoiy momidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada epik asarlarni o'qitishda keys-stadi texnologiyasini qo'llashning didaktik tamoyillari tadqiq etilgan. Adabiy ta'lim metodikasi hamda keys-stadi texnologiyasining nazariy asoslari tahlil qilinib, epik asarlarni o'qitishda muammoli-konfliktlilik, interpretativlik va refleksivlik tamoyillarining mazmun-mohiyati yoritilgan. Tadqiqot davomida epik asarlarda keys vaziyatini aniqlashning metodik markazi sifatida qahramonning qaror qabul qilish nuqtasi asoslangan hamda uni tanlash mezonlari ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: epik asar, adabiy ta'lim, keys-stadi texnologiyasi, didaktik tamoyillar, qaror qabul qilish nuqtasi, keys vaziyati, muammoli-konfliktlilik, interpretativlik, refleksivlik, badiiy konflikt, adabiy kompetensiya.

Abstract. This article examines the didactic principles of applying case-study technology in teaching epic literary works. The theoretical foundations of literary education methodology and case-study technology are analyzed, and the essence of the principles of problem-conflict orientation, interpretability, and reflexivity in teaching epic works is revealed. The study substantiates the character's decision-making point as the methodological core for identifying case situations in epic texts and develops criteria for its selection.

Keywords: epic work, literary education, case-study technology, didactic principles, decision-making point, case situation, problem-conflict orientation, interpretability, reflexivity, literary conflict, literary competence.

Аннотация. В данной статье исследуются дидактические принципы применения кейс-стади технологии в обучении эпическим произведениям. Проанализированы теоретические основы методики литературного образования и технологии кейс-стади, раскрыта сущность принципов проблемно-конфликтности, интерпретативности и рефлексивности при изучении эпических произведений. В ходе исследования обоснована точка принятия решения героем как методический центр выявления кейс-ситуаций в эпическом тексте и разработаны критерии её отбора.

Ключевые слова: эпическое произведение, литературное образование, технология кейс-стади, дидактические принципы, точка принятия решения, кейс-ситуация, проблемно-конфликтный подход, интерпретативность, рефлексивность, художественный конфликт, литературная компетентность.

Kirish. Epik asar inson va hayot o'rtasidagi murakkab munosabatlarni konfliktlar, tanlovlar va muammoli vaziyatlar orqali aks ettiradi. Shu sababli uni o'qitish jarayoni tayyor bilimlarni o'zlashtirish bilan cheklanmay, badiiy vaziyatlarni tahlil qilish, muqobil qarorlarni baholash hamda mustaqil xulosalar chiqarishga yo'naltirilishi zarur.

Zamonaviy adabiy ta'lim oldiga qo'yilayotgan vazifalar o'quvchilarda badiiy matnni tahlil qilish, mustaqil fikr yuritish, dalillangan xulosalar chiqarish va interpretatsion kompetensiyalarni rivojlantirishni talab etmoqda. Bu esa epik asarlarni o'qitishda o'quvchini faol fikrlashga undovchi texnologiyalardan foydalanishni taqozo etadi.

Shunday texnologiyalardan biri keys-stadi texnologiyasi bo'lib, u muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, muqobil yechimlarni qiyoslash va asoslangan qarorlar qabul

qilishga yo'naltirilganligi bilan ajralib turadi. Biroq epik asarlarni keys-stadi texnologiyasi asosida o'qitishning didaktik tamoyillari hamda keys vaziyatlarini aniqlash mezonlari adabiyot o'qitish metodikasida yetarlicha tadqiq etilmagan.

Maqolaning maqsadi epik asarlarni o'qitishda keys-stadi texnologiyasini qo'llashning didaktik tamoyillarini aniqlash va ilmiy-metodik jihatdan asoslashdan iborat.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi epik asarlarni o'qitishda keys-stadi texnologiyasini qo'llashning metodik modeli ishlab chiqilganligi bilan belgilanadi. Mazkur modelda keys vaziyatini loyihalashning metodik markazi sifatida qahramonning qaror qabul qilish nuqtasi asoslanib, epik asarlarni keys-stadi texnologiyasi asosida o'qitishning "qaror qabul qilish nuqtasi → keys vaziyati → muallif yechimi → refleksiya" ketma-ketligiga asoslangan mexanizmi taklif etildi.

Adabiyotlar sharhi. Adabiy ta'lim metodikasida badiiy matn bilan ishlash masalasi Q.Yo'ldosh va M.Yo'ldosh tadqiqotlarida alohida o'rin egallaydi. Olimlar "bo'lajak filolog badiiy asarlarni tahlil etish yo'l-yo'rig'ini fan darajasida o'rganmas va har qanday janrdagi estetik yaratqini tahlil qila olish malakasiga ega bo'lmas ekan, adabiy ta'limdan kuzatilgan asl maqsadga to'liq erishilishi mumkin emas", deb ta'kidlaydilar. Shuningdek, ular "badiiy asar matni bilan ishlashni o'z faoliyatining markaziy masalasi deb hisoblamaydigan adabiy ta'lim avval-boshdan samarasizlikka mahkumdir", deya qayd etadilar. Ushbu qarashlar adabiy ta'limda o'quvchining matn bilan faol intellektual munosabatga kirishishini ta'minlaydigan metodlarni qo'llash zaruratini asoslaydi.

Q.Husanboyeva va R.Niyozmetovalar adabiyot o'qitish metodikasining predmetini badiiy adabiyotning o'qitilishiga doir didaktik qonuniyatlar hamda badiiy asarni o'rganish jarayonidagi o'qituvchi va o'quvchi hamkorligi bilan bog'laydilar. Mualliflar zamonaviy adabiy ta'limning muhim vazifalaridan biri sifatida o'quvchini tayyor bilimlarni qabul qiluvchi ijrochidan mustaqil fikrlovchi faol ishtirokchi darajasiga ko'tarish zarurligini ta'kidlaydilar. Mazkur yondashuv o'quvchining tahliliy, baholovchi va qaror qabul qilish kompetensiyalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalariga ehtiyoj mavjudligini ko'rsatadi.

Tahlil qilingan ilmiy-metodik manbalar epik asarning konflikt va tanlovlarga asoslangan badiiy tabiati hamda zamonaviy adabiy ta'limning o'quvchini faol subyekt sifatida shakllantirishga qaratilgan maqsadlari o'rtasida uzviy bog'liqlik mavjudligini ko'rsatadi. Biroq mavjud tadqiqotlarda epik asarlarni keys-stadi texnologiyasi asosida o'qitishning didaktik tamoyillari va keys vaziyatini aniqlash mezonlari maxsus metodik muammo sifatida alohida tadqiq etilmagan.

Xorijiy pedagogik tadqiqotlarda keys-stadi texnologiyasi bo'yicha L.Shulman, H.Merseth kabi olimlar tadqiqotlarida qaror qabul qilishga asoslangan o'quv vaziyatlarini ta'lim samaradorligini rivojlantirish vositasi sifatida talqin qilinadi. Narrative pedagogy va literary case studies yo'nalishlarida badiiy matnlardan o'quv vaziyatlari yaratish imkoniyatlari ko'rib chiqilgan bo'lsa-da, epik asarlarni o'qitishda keys vaziyatini

qahramonning qaror qabul qilish nuqtasi asosida aniqlash masalasi alohida metodik muammo sifatida yetarlicha tadqiq etilmagan.

Epik asar va keys-stadi texnologiyasining metodik uyg'unligi. Epik asarning janriy tabiati hamda keys-stadi texnologiyasining didaktik mohiyati o'rtasida muayyan metodik uyg'unlik mavjud. Epik asar syujeti odatda konfliktlar, tanlovlar va qahramonning qaror qabul qilish jarayonlari asosida rivojlanadi. Keys-stadi texnologiyasi esa muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, muqobil qarorlarni ishlab chiqish va ularning oqibatlarini baholashga yo'naltirilganligi bilan xarakterlanadi.

Bu umumiylik epik asarlarni keys-stadi texnologiyasi asosida o'qitish uchun metodik zamin yaratadi. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, epik asardagi har qanday syujet voqeasi emas, balki qahramonning qaror qabul qilish nuqtasi keys vaziyatini loyihalashning metodik markazi sifatida xizmat qiladi. Aynan shu nuqtada konflikt eng yuqori darajada namoyon bo'ladi, muqobil variantlar yuzaga keladi va voqealarning keyingi rivoji belgilanadi. Epik asarlarni keys-stadi texnologiyasi asosida o'qitishda muammoli-konfliktlilik, interpretativlik va refleksivlik tamoyillari o'zaro bog'liq holda amal qiladi. Muammoli-konfliktlilik badiiy vaziyatni o'quv muammosiga aylantirsa, interpretativlik ushbu vaziyat yuzasidan turli talqinlarning shakllanishini ta'minlaydi, refleksivlik esa qabul qilingan qarorlarni muallif yechimi bilan qiyoslash imkonini yaratadi.

Tadqiqotda didaktik tamoyillar epik asarlarda keys vaziyatini aniqlash va loyihalashning metodik asoslarini izohlovchi nazariy mexanizm sifatida talqin qilinadi. Shu bois tadqiqotning markaziy metodik birligi sifatida qahramonning qaror qabul qilish nuqtasi qabul qilindi. Aynan ushbu nuqta badiiy konfliktni o'quv keys vaziyatiga transformatsiya qilish imkoniyatini beradi.

muammoli-konfliktlilik tamoyili. Epik asarning syujet qurilishi, odatda, muayyan konflikt yoki ziddiyat rivojiga asoslanadi. Shu bois keys-stadi texnologiyasini qo'llashda asardagi konfliktli vaziyatlarni o'quv faoliyatining markaziga olib chiqish zarur. Masalan, O.Yoqubovning «*Ulug'bek xazinasi*» romanida ilm-fan, hokimiyat va tarixiy sharoitlar o'rtasidagi ziddiyatlar syujetning asosiy harakatlantiruvchi kuchini tashkil etadi. Qahramonlar oldida yuzaga kelgan murakkab tanlovlar o'quvchilarni muammoli vaziyatlarni tahlil qilishga undaydi.

Demak, muammoli-konfliktlilik tamoyili asosida tashkil etilgan ta'lim jarayonida o'quvchilar konflikt sabablarini aniqlash, qahramon faoliyatini baholash va muqobil qarorlarni ishlab chiqish faoliyatiga jalb etiladi.

Interpretativlik tamoyili. Epik asarning muhim xususiyatlaridan biri uning turli talqinlarga ochiqligidir. Badiiy matnda qahramon xarakteri, voqealar mohiyati yoki muallif g'oyasi yuzasidan yagona hukm mavjud bo'lmaydi. Shu sababli keys-stadi texnologiyasini qo'llashda o'quvchilarning muqobil qarashlarni ilgari surishi va ularni asoslay olishi muhim ahamiyatga ega. Bu jihat, ayniqsa, Cho'lponning «*Kecha va kunduz*»

romanida yaqqol namoyon bo‘ladi. Asardagi Zebi, Miryoqub, Akbarali kabi obrazlar faoliyati turli nuqtayi nazardan baholanishi mumkin.

Mazkur tamoyil asosida tashkil etilgan keyslar o‘quvchilarning matn bilan faol muloqotga kirishishi, o‘z pozitsiyasini dalillar asosida himoya qilishi va qarama-qarshi fikrlarni baholashiga xizmat qiladi.

Refleksivlik tamoyili. Keys-stadi texnologiyasining muhim afzalliklaridan biri badiiy matnni o‘quvchining shaxsiy tajribasi va qadriyatlari bilan bog‘lash imkoniyatini yaratishidir. Shu jihatdan refleksivlik tamoyili epik asarlarni o‘qitishda alohida ahamiyat kasb etadi. A.P.Chexovning «Garov» hikoyasida inson hayotining mazmuni, boyluk va ma’naviyat munosabati bilan bog‘liq masalalar o‘quvchini shaxsiy munosabat bildirishga undaydi.

Mazkur tamoyil asosida tashkil etilgan faoliyat natijasida o‘quvchilar badiiy vaziyatni baholash bilan bir qatorda o‘z pozitsiyasini ham shakllantiradilar. Bu esa adabiy ta’limning nafaqat bilish, balki tarbiyaviy va ma’naviy vazifalarini ham samarali amalga oshirishga xizmat qiladi.

Jadval 1

Epik asarlarni o‘qitishda keys-stadi texnologiyasini qo‘llashning didaktik tamoyillari

Tamoyil	Nazariy asosi	Asarlarda namoyon bo‘lishi	Keys-stadidagi funksiyasi	Kutilayotgan natija
Muammoli-konfliktlilik	Epik konflikt va tanlovlar tizimi	“Ulug‘bek xazinasi”, “Asrga tatigulik kun”	Konfliktni o‘quv muammosiga aylantirish	Analitik fikrlash va muammo yechish kompetensiyasi
Interpretativlik	Badiiy matnning ko‘pma’noliligi	“Kecha kunduz” va	Muqobil talqinlarni ishlab chiqish va asoslash	Tanqidiy va interpretatsion fikrlash
Refleksivlik	O‘quvchi tajribasi va qadriyatlari bilan bog‘liqlik	“Garov”	Qarorlarni muallif yechimi bilan qiyoslash	Refleksiv va axloqiy baholash kompetensiyasi

Jadval ma’lumotlari didaktik tamoyillarning epik asarlarning janriy xususiyatlari bilan bog‘liqligini hamda keys-stadi texnologiyasini qo‘llash jarayonidagi metodik funksiyalarini ko‘rsatadi.

Jadval 2

Epik asarlarda keys vaziyatini aniqlash mezonlari

Mezon	Mazmuni	Didaktik vazifasi
-------	---------	-------------------

Qaror qabul qilish nuqtasi	Qahramon bir necha variantdan birini tanlashga majbur bo'ladigan vaziyat	O'quvchini tanlov jarayoniga jalb etadi.
Qarama-qarshi manfaatlar mavjudligi	Turli qadriyatlar, manfaatlar yoki pozitsiyalar to'qnashuvi	Muammoli vaziyatni shakllantiradi.
Vaziyatning noaniqligi	Qaror oqibatlarini oldindan aniq bo'lmasligi	Muqobil fikrlashni rag'batlantiradi.
Qaror oqibatlarining muhimligi	Tanlov keyingi voqealar rivojiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi	Qarorlarni baholash imkonini beradi.
Muqobil variantlarning mavjudligi	Bir nechta ehtimoliy yechimlarning mavjudligi	Turli strategiyalarni ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, didaktik tamoyillar epik asarlarning janriy xususiyatlari bilan uzviy bog'liq holda namoyon bo'ladi. Mazkur tamoyillar keys-stadi texnologiyasining epik asarlarni o'qitish jarayonidagi metodik funksiyalarini belgilaydi.

Didaktik tamoyillarning epik asarlarni o'qitish jarayonidagi amaliy tatbiqi

Tadqiqot davomida epik asarlarda keys-stadi texnologiyasini qo'llash uchun zarur bo'lgan **qaror qabul qilish nuqtasi (keys yadrosi)** aniqlandi. Qaror qabul qilish nuqtasi deganda qahramon bir nechta muqobil yo'llardan birini tanlashga majbur bo'ladigan va ushbu tanlov keyingi voqealar rivojiga ta'sir ko'rsatadigan konflikt nuqtasi tushuniladi.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, epik asarlardagi har bir konflikt keys vaziyatiga aylantirilavermaydi. Keys-stadi uchun tanlangan vaziyat quyidagi belgilarga ega bo'lishi lozim: qaror qabul qilish zarurati mavjud bo'lishi; qarama-qarshi manfaatlar to'qnashuvi kuzatilishi; bir nechta yechim variantlari mavjud bo'lishi; oqibatlarining oldindan noma'lumligi; qabul qilingan qarorning voqealar rivojiga ta'sir ko'rsatishi.

Mazkur mezonlar asosida tanlangan keys qaror nuqtalari quyidagicha tavsiflandi.

1. Muammoli-konfliktlilik tamoyili: "Ulug'bek xazinasi" romani. O.Yoqubovning "Ulug'bek xazinasi" romanida qaror qabul qilish nuqtasi Mirzo Ulug'bekning saltanatni saqlab qolish va ilmiy merosni asrab qolish o'rtasidagi tanlovida namoyon bo'ladi. Roman voqealari davomida Ulug'bek mamlakatdagi siyosiy beqarorlik va taxt uchun kurash sharoitida rasadxona, kutubxona hamda ilmiy maktab taqdiridan xavotir bildiradi.

Bunda: davlat manfaatlari; ilm-fan manfaatlari; hukmdorlik burchi; olimlik mas'uliyati o'zaro to'qnashadi. Shu sababli ushbu epizod qaror qabul qilish nuqtasi sifatida tanlanib, o'quvchilar oldiga: "Saltanatni saqlab qolish muhimmi yoki ilmiy merosni asrash muhimmi?" – degan muammoli savol qo'yiladi. Bu jarayonda muammoli-konfliktlilik tamoyili amalga oshadi. Qaror qabul qilish nuqtasi o'quvchilarda konfliktli vaziyatlarni tahlil qilish, manfaatlar to'qnashuvini baholash hamda muqobil qarorlarni asoslash ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

2. Interpretativlik tamoyili: “Kecha va kunduz” romani. Cho‘lponning “*Kecha va kunduz*” romanida qaror qabul qilish nuqtasi Zebining taqdiri bilan bog‘liq qaror qabul qilish nuqtasida yuzaga keladi. Qahramonning shaxsiy istaklari va patriarxal muhit talablari o‘rtasidagi ziddiyat romanning asosiy konfliktlaridan birini tashkil etadi.

Bu vaziyatda esa: ota hokimiyati; jamiyat talablari; oilaviy manfaat; shaxsiy tanlov huquqi qarama-qarshi qo‘yiladi. Keys muhokamasi davomida o‘quvchilar Zebi, Razzoq so‘fi va boshqa qahramonlarning pozitsiyalarini tahlil qiladilar hamda turli qaror variantlarini ilgari suradilar. Natijada bitta badiiy vaziyatga nisbatan turli interpretatsiyalar shakllanadi va interpretativlik tamoyili ro‘yobga chiqadi. Ushbu keys vaziyati o‘quvchilarda badiiy matnni turli nuqtayi nazardan talqin qilish va qarama-qarshi pozitsiyalarni dalillar asosida baholash kompetensiyalarini shakllantiradi.

3. Refleksivlik tamoyili: “Garov” hikoyasi. A.P.Chexovning “*Garov*” hikoyasida qaror qabul qilish nuqtasi bankirning garov muddati yakunlanishi arafasidagi ichki tanlovida mujassamlangan. U

bir tomondan: moliyaviy manfaatlarini saqlab qolishni;

ikkinchi tomondan: insoniylik va vijdon talablarini hisobga olishga majbur bo‘ladi. Bu keys o‘quvchilarning refleksiv fikrlashini rivojlantirib, shaxsiy qarorlarini muallif yaratgan badiiy yechim bilan qiyoslash imkonini beradi.

1-rasm. Epik asarlarni keys-stadi texnologiyasi asosida o‘qitishning metodik modeli



Bu model epik asardagi konfliktni o‘quv faoliyati markaziga olib chiqish, qahramonning qaror qabul qilish jarayonini modellashtirish va muallif konsepsiyasini refleksiv o‘zlashtirish mexanizmini ifodalaydi.

Keys-stadi texnologiyasining epik asarlarni o‘qitishdagi didaktik imkoniyatlari

Epik asarlar inson va jamiyat, shaxs va muhit, burch va manfaat, e‘tiqod va haqiqat o‘rtasidagi murakkab munosabatlarni badiiy aks ettiruvchi janr sifatida xarakterlanadi. Shu bois epik asarlarni o‘qitishda voqealar ketma-ketligini o‘zlashtirishdan ko‘ra qahramonlarning qaror qabul qilish jarayonlarini anglash muhimroq hisoblanadi. Tadqiqot

natijalari shuni ko'rsatdiki, keys-stadi texnologiyasi epik asarlarni aynan shu nuqtai nazardan o'rganish imkonini beradigan samarali didaktik vosita hisoblanadi.

Epik konfliktni o'quv muammosiga transformatsiya qilish imkoniyati. An'anaviy adabiyot darslarida epik asardagi konflikt ko'pincha syujet elementi sifatida tahlil qilinadi. Keys-stadi texnologiyasida esa konflikt o'quv faoliyatining markaziga olib chiqilib, muammoli vaziyat shakliga keltiriladi. Bunda o'quvchi tayyor bahoni qabul qiluvchi emas, balki konflikt mohiyatini mustaqil tahlil qiluvchi subyekt sifatida ishtirok etadi. Masalan, "*Ulug'bek xazinasi*" romanida siyosiy hokimiyat va ilmiy meros o'rtasidagi ziddiyat, "*Kecha va kunduz*" romanida shaxsiy tanlov va ijtimoiy talablar o'rtasidagi qarama-qarshilik, "*Garov*" hikoyasida esa moddiy manfaat va ma'naviy qadriyatlar to'qnashuvi o'quv muammosiga aylantiriladi. Natijada badiiy konflikt o'quvchi uchun muhokama va qaror qabul qilishni talab qiladigan intellektual vazifaga aylanadi.

Qahramonning qaror qabul qilish mexanizmini modellashtirish imkoniyati. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, epik asarni keys-stadi asosida o'qitishning eng muhim afzalliklaridan biri qahramonning qaror qabul qilish mexanizmini modellashtirish imkoniyatidir. An'anaviy tahlilda qahramon harakati ko'pincha voqea sodir bo'lgandan keyin baholanadi. Keys-stadi texnologiyasida esa o'quvchi qahramon hali qaror qabul qilmagan vaziyatga joylashtiriladi.

O'quvchilar: qahramon oldidagi muqobil variantlarni aniqlaydilar; har bir variantning ehtimoliy oqibatlarini baholaydilar; qaror qabul qilish omillarini tahlil qiladilar; o'z pozitsiyalarini asoslaydilar. Bunday faoliyat qahramon obrazini tayyor xarakter sifatida emas, balki murakkab ijtimoiy-psixologik shaxs sifatida anglash imkonini yaratadi. Shu jihatdan keys-stadi texnologiyasi epik asarlarni o'rganishda qahramon psixologiyasini chuqurroq idrok etishga xizmat qiladi.

Muallif konsepsiyasini mustaqil kashf etish imkoniyati. Epik asarlarni o'qitishda muallif g'oyasi ko'pincha tayyor xulosa shaklida bayon qilinadi. Bunday yondashuv o'quvchini passiv qabul qiluvchi pozitsiyasida qoldiradi. Keys-stadi texnologiyasida esa o'quvchi avval muammoli vaziyat yuzasidan o'z qarorini ishlab chiqadi, keyinchalik esa asardagi badiiy yechim bilan tanishadi. Muallif konsepsiyasi o'quvchi tomonidan tayyor ma'lumot sifatida emas, balki mustaqil ravishda kashf etilgan badiiy haqiqat sifatida idrok qilinadi. Bu holat muallif pozitsiyasini chuqurroq anglash va badiiy g'oyaning mohiyatini tushunishga xizmat qiladi.

Refleksiv badiiy tafakkurni rivojlantirish imkoniyati. Keys-stadi texnologiyasining muhim didaktik imkoniyatlaridan biri refleksiv faoliyatni tashkil etish bilan bog'liq. O'quvchi muhokama jarayonida ishlab chiqqan qarorini asardagi badiiy yechim bilan qiyoslaydi va o'z fikrlash jarayonini qayta tahlil qiladi.

Bu jarayon: shaxsiy pozitsiyani baholash; qaror qabul qilish sabablarini anglash; muqobil fikrlarni qabul qilish; badiiy haqiqatga nisbatan ongli munosabat shakllantirish

imkonini yaratadi. Refleksiya faqat qahramon faoliyatini baholash vositasi emas, balki o'quvchining o'z tafakkurini tahlil qilish mexanizmiga aylanadi.

Talqinlar ko'pvariantlilikini yuzaga chiqarish imkoniyati. Epik asarlarning muhim xususiyatlaridan biri ularda bir xil vaziyatning turli nuqtai nazardan talqin qilinishi mumkinligidir. Keys-stadi texnologiyasi aynan shu imkoniyatni faollashtiradi. Bir xil badiiy vaziyat yuzasidan turli qarorlarning ishlab chiqilishi o'quvchilarni muallif, qahramon va o'quvchi pozitsiyalari o'rtasidagi murakkab munosabatlarni anglashga olib keladi. Bu esa epik asarni yagona tayyor talqin asosida emas, balki ko'p qatlamli badiiy hodisa sifatida o'rganish imkonini beradi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari epik asarlarni o'qitishda keys-stadi texnologiyasining metodik imkoniyatlari badiiy konfliktning o'zida emas, balki qahramonning qaror qabul qilish jarayonida mujassamlashganligini ko'rsatdi. Shu asosda qahramonning qaror qabul qilish nuqtasi keys vaziyatini loyihalashning markaziy metodik birligi sifatida asoslandi.

Tadqiqot davomida epik asarlarni o'qitishda keys-stadi texnologiyasini qo'llashning muammoli-konfliktlilik, interpretativlik va refleksivlik tamoyillari tizimlashtirildi hamda ularning o'zaro bog'liqligi aniqlandi. Ushbu tamoyillar asosida epik asarlarni keys-stadi texnologiyasi yordamida o'qitishning "qaror qabul qilish nuqtasi → keys vaziyati → muallif yechimi → refleksiya" modeliga asoslangan metodik mexanizmi ishlab chiqildi.

Tahlillar taklif etilgan model epik asardagi konfliktlarni o'quv muammosiga transformatsiya qilish, qahramonlarning qaror qabul qilish mexanizmini modellashtirish hamda o'quvchilarning analitik, interpretativ va refleksiv kompetensiyalarini rivojlantirish imkonini beradi. Bu natijalar epik asarlarni o'qitishda keys-stadi texnologiyasining nazariy-metodik asoslarini boyitib, adabiy ta'lim amaliyotida qahramonning qaror qabul qilish nuqtasiga tayangan holda keys vaziyatlarini loyihalash istiqbolli metodik yo'nalishlardan biri ekanligini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Бахтин М.М. Вопросы литературы и эстетики. Исследования разных лет. – Москва: Художественная литература, 1975. – 504 с.
2. Dewey J. Experience and Education. – New York: Kappa Delta Pi, 1938. – 91 p.
3. Yo'ldosh Q., Yo'ldosh M. Badiiy tahlil asoslari. – Toshkent, 2016.
4. Husanboyeva Q.P., Niyozmetova R.X. Adabiyot o'qitish metodikasi. – 2-nashr. – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2020.
5. Kambarova S. O'zbek adabiyotini o'qitish metodikasi: uslubiy qo'llanma. – Toshkent: Mahalla va Oila, 2022.
6. Wassermann S. Introduction to Case Method Teaching: A Guide to the Galaxy. – New York: Teachers College Press, 1994. – 224 p.
7. Shulman J.H. Case Methods in Teacher Education. – New York: Teachers College Press, 1992. – 240 p.
8. Merseth K.K. Cases in Educational Administration. – New York: Longman, 1997. – 384 p.
9. Cho'lpon. Kecha va kunduz: roman. – Toshkent: Sharq, 2019.
10. Yoqubov O. Ulug'bek xazinasi: roman. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2018.